TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.6.2.

Crossref Content Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**Nashr bo'yicha mas'ul:**
O. Choriyev

**Muharrirlar:**
E. Mustafayev,
Y. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvaliyeva,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova,
X. Yuldasheva

**Musahhih:**
M. Tursunov

**Texnik muharrir:**
U. Sapayev

**Dizayner:**
D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** jurisprudence.tsul.uz
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387

**Tasdiqnoma**
№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2026-yil 24-aprelda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 13,2
Adadi: 100. Buyurtma: № 61.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 37.

**© Toshkent davlat yuridik universiteti**

## TAHRIR HAY'ATI

### BOSH MUHARRIR

*Z. Esanova* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

### BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

*J. Allayorov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

### MAS'UL MUHARRIR

*N. Ramazonov* – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti sho'basi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

*J. Blum* – Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (AQSH)

*M. Vishovatiy* – Polshaning Gdansk universiteti professori (Polsha)

*M. Hayat* – Muhammadiyah Malang universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

*A. Xashimxonov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

*A. Yakubov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro hamkorlik va uzluksiz ta'lim bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, dotsent

*M. Axmedshayeva* – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

*X. Xayitov* – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori, professor

*S. Yusupov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

*E. Egamberdiyev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho'basi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

*Sh. Ismoilov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

*G. Uzakova* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

*G. Yo'ldasheva* – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

*A. Yo'ldoshev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq sho'basi dotsenti, yuridik fanlar doktori

*R. Altiyev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho'basi professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

*M. Kurbanov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho'basi professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

*S. Oripov* – Toshkent davlat agrar universiteti Huquqshunoslik kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

*F. Hamdamova* – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

*D. So'fiyeva* – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

*R. Kuchkarov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquq, jamiyat va madaniyat sho'basi dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Ответственный за выпуск:**
О. Чориев

**Редакторы:**
Э. Мустафаев,
Е. Ярмолик,
Э. Шарипов,
К. Абдувалиева,
М. Шарифова,
Ш. Бекназарова,
Х. Юлдашева

**Корректор:**
М. Турсунов

**Технический редактор:**
У. Сапаев
**Дизайнер:**
Д. Ражапов

**Адрес редакции:**
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** jurisprudence.tsul.uz
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Подписной индекс:** 1387.

**Свидетельство**
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию 24.04.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 13,2. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 61.

Отпечатано в типографии Ташкентского государственного юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, дом 37.

**© Ташкентский государственный юридический университет**

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

### ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

*З. Эсанова* – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

### ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

*Ж. Аллаёров* – директор Высшей школы правовых исследований Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

### ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

*Н. Рамазонов* – заведующий сектором узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по филологическим наукам, доцент

### ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

*Дж. Блум* – профессор юридической школы Бостонского колледжа (Бостон, США), доктор юридических наук

*М. Вишоватый* – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

*М. Хаят* – преподаватель Университета Мухаммадия Маланг (Индонезия)

*А. Хашимхонов* – первый проректор по делам молодёжи и духовно-просветительской работе Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

*А. Якубов* – проректор по международным связям и дополнительному образованию Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

*М. Ахмедшаева* – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

*Х. Хайитов* – депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

*С. Юсупов* – заведующий сектором административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

*Э. Эгамбердиев* – доцент сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

*Ш. Исмоилов* – заведующий сектором трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

*Г. Узакова* – профессор сектора экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

*Г. Юлдашева* – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

*А. Юлдошев* – доцент сектора конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

*Р. Алтиев* – и. о. профессора сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

*М. Курбанов* – и. о. профессора сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

*С. Орипов* – доцент кафедры права Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии по юридическим наукам

*Ф. Хамдамова* – и. о. доцента кафедры международного и публичного права Университета мировой экономики и дипломатии, доктор юридических наук

*Д. Суфиева* – старший преподаватель сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

*Р. Кучкаров* – доцент сектора права, общества и культуры Ташкентского государственного юридического университета, кандидат филологических наук

**FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Publication Officer:**
O. Choriev

**Editors:**
E. Mustafaev,
E. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvalieva,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova
Kh. Yuldasheva

**Proofreader:**
M. Tursunov

**Technical editor:**
U. Sapaev

**Designer:**
D. Rajapov

**Editorial office address::**
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** jurisprudence.tsul.uz
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Subscription index:** 1387.

**Certificate**
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 24.04.2026.
Paper size: A4. Cond.p.f: 13,2.
Units: 100. Order: № 61.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

**© Tashkent State University of Law**

## EDITORIAL BOARD

**EDITOR-IN-CHIEF**

*Z. Esanova* – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**DEPUTY EDITOR**

*J. Allayorov* – Director of the Graduate School of Legal Research of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

**EXECUTIVE EDITOR**

*N. Ramazonov* – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD**

*J. Blum* – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

*M. Vishovatiy* – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

*M. Hayat* – Lecturer of the University of Muhammadiyah Malang (Indonesia)

*A. Khashimhonov* – First Deputy Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

*A. Yakubov* – Deputy Rector for International Relations and Further Education of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

*M. Akhmedshaeva* – Professor of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

*Kh. Khayitov* – Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

*S. Yusupov* – Head of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

*E. Egamberdiev* – Associate Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

*Sh. Ismoilov* – Head of the Department of Labor Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

*G. Uzakova* – Professor of the Department of Environmental Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*G. Yuldasheva* – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*A. Yuldoshev* – Associate Professor of the Department of Constitutional Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*R. Altiev* – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

*M. Kurbanov* – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

*S. Oripov* – Associate Professor of the Department of Law of Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

*F. Hamdamova* – Acting Associate Professor of the Department of International Law and Public Law of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

*D. Sufieva* – Senior Lecturer of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

*R. Kuchkarov* – Associate Professor of the Department of Law, Society and Culture of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences

# MUNDARIJA


12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **MUHAMMADJONOV ABRORJON AKMALJON O'G'LI**
Davlat hokimiyati tizimida prokuraturaning o'rni va ahamiyati haqida ayrim mulohazalar

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

17 **SHAMSHETOV SHARAFATDIN SARSENOVICH**
Mikrokreditlashni turli huquqiy tizimlarda tartibga solish modellarining qiyosiy tahlili

32 **ABROROVA KAMOLA SAIDMUXTOROVNA**
O'zbekistonda xalqaro tijorat va investitsiyaviy nizolarning kelajagi: mediatsiya va arbitraj sinergiyasi

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

42 **MATVIYENKO IRINA ALEKSANDROVNA, NAIM ALLAHRAKHA**
O'zbekistonda ayollarga nisbatan kiberta'qib: amaldagi qonunchilik va islohotlar istiqboli

55 **JALILOV RAVSHANJON ABDUKAYUMOVICH, ABDULLAYEV AKMALJON YO'LCHIBOYEVICH**
Inson a'zolari va to'qimalarini olish maqsadini jinoyatning og'irlashtiruvchi belgisi sifatida aks ettirish masalalari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

64 **SUROPOV AZAMAT FURQAT O'G'LI**
Migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari

76 **ABDIYEVA KAMOLA KOMILJONOVNA**
O'zbekiston Respublikasidagi raqamli muhitda ayollar huquqlarini himoya qilish xalqaro standartlari implementatsiyasi: xalqaro-huquqiy tahlil va milliy amaliyot

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

87 **BEKBO'TAYEVA LOBAR SHOVKAT QIZI**
Muqobil vasiylik kontekstida bola huquqlarining mohiyati, tasnifi va funksiyalarining nazariy-huquqiy tahlili

101 **SADULLAYEVA SHOXISTA DAVRON QIZI**
Axborot kodeksi orqali raqamli texnologiyalar davrida inson huquqlarini himoya qilish: huquqiy va institutsional mexanizmlar tahlili

110 **AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**
Buyuk saltanat va umumbashariyat taraqqiyotiga qo'shilgan bebaho tarixiy meros

# СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 **МУХАММАДЖОНОВ АБРОРЖОН АКМАЛЖОН УГЛИ**
Некоторые соображения о месте и значении прокуратуры в системе государственной власти

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

17 **ШАМШЕТОВ ШАРАФАТДИН САРСЕНОВИЧ**
Сравнительный анализ моделей правового регулирования микрокредитования в различных правовых системах

32 **АБРОРОВА КАМОЛА САИДМУХТОРОВНА**
Будущее международных коммерческих и инвестиционных споров в Узбекистане: синергия медиации и арбитража

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

42 **МАТВИЕНКО ИРИНА АЛЕКСАНДРОВНА, НАИМ АЛЛАХРАКХА**
Киберпреследование женщин в Узбекистане: действующее законодательство и перспективы реформирования

55 **ЖАЛИЛОВ РАВШАНЖОН АБДУКАЮМОВИЧ, АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН ЮЛЧИБОЕВИЧ**
Вопросы отражения цели изъятия органов и тканей человека как отягчающего признака преступления

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

64 **СУРОПОВ АЗАМАТ ФУРКАТ УГЛИ**
Международно-правовые основы защиты прав мигрантов

76 **АБДИЕВА КАМОЛА КОМИЛЖОНОВНА**
Имплементация международных стандартов защиты прав женщин в цифровой среде в Республике Узбекистан: международно-правовой анализ и национальная практика

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

87 **БЕКБУТАЕВА ЛОБАР ШОВКАТ КИЗИ**
Теоретико-правовой анализ сущности, классификации и функций прав ребёнка в контексте альтернативной опеки

101 **САДУЛЛАЕВА ШОХИСТА ДАВРОН КИЗИ**
Защита прав человека в эпоху цифровых технологий посредством информационного кодекса: анализ правовых и институциональных механизмов

110 **АЗИМОВ ХАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ**
Великая держава и бесценное историческое наследие, внесённое в развитие всего человечества

# CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

8 **MUHAMMADJONOV ABRORJON AKMALJON UGLI**
Some considerations on the role and significance of the prosecutor’s office in the system of state power

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

17 **SHAMSHETOV SHARAFATDIN SARSENOVICH**
Comparative analysis of legal regulation models for microcredit in different legal systems

32 **ABROROVA KAMOLA SAIDMUKHTOROVNA**
The future of international commercial and investment disputes in Uzbekistan: the synergy of mediation and arbitration

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

42 **MATVIENKO IRINA ALEKSANDROVNA, NAEEM ALLAHRAKHA**
Cyberstalking of women in Uzbekistan: current legislation and prospects for reform

55 **JALILOV RAVSHANJON ABDUKAYUMOVICH, ABDULLAEV AKMALJON YULCHIBOEVICH**
Issues of reflection of the purpose of removing human organs and tissues as an aggravating element of the crime

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

64 **SUROPOV AZAMAT FURQAT UGLI**
International legal foundations for the protection of migrants’ rights

76 **ABDIYEVA KAMOLA KOMILJONOVNA**
Implementation of international legal standards for the protection of women's rights in the digital environment in the Republic of Uzbekistan: an international legal analysis and national practice

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

87 **BEKBUTAEVA LOBAR SHOVKAT KIZI**
Theoretical and legal analysis of the essence, classification and functions of child’s rights in the context of alternative care

101 **SADULLAEVA SHOKHISTA DAVRON KIZI**
Protection of human rights in the digital age through the information code: analysis of legal and institutional mechanisms

110 **AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**
A great empire and an invaluable historical heritage added to universal human progress

Kelib tushgan / Получено / Received: 24.02.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 13.04.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.04.2026

**DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.2./ICSA3282**
**UDC: 349.2:314.7(045)(575.1)**

# MIGRANTLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

**Suropov Azamat Furqat oʻgʻli,**
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining Yuridik departamenti bosh yuriskonsulti
ORCID: https://orcid.org/0000-0001-7973-0855
e-mail: azamatsuropov15@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada migrantlar huquqlarini himoya qilish boʻyicha xalqaro standartlar, mexanizmlar, shu jumladan ixtisoslashgan tashkilotlar doirasida qabul qilingan xalqaro shartnomalar, mintaqaviy xalqaro shartnomalar hamda migratsiyani bevosita tartibga soluvchi ikki tomonlama shartnomalar, shuningdek xalqaro huquqda migratsiyaning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Qolaversa, mazkur xalqaro shartnomalardagi muhim oʻzgarishlar, huquqiy boʻshliqlar, yechim talab qilayotgan muammolar (cheklovlar), shuningdek ushbu shartnoma qoidalariga davlatlar tomonidan rioya etilishi hamda ularni amaliyotda qoʻllash jarayonida yuzaga kelayotgan kamchiliklar oʻrganilgan. Shu oʻrinda, yuqoridagilarga qoʻshimcha ravishda migrantlar huquqlarini himoya qilish boʻyicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, taklif va eʼtirozlar oʻrganilib, tahlil qilinib, xalqaro huquqiy normalarni takomillashtirish yuzasidan tegishli takliflar berilgan.*

***Kalit soʻzlar:*** *migratsiya, inson huquqlari, migrant, fuqaroligi boʻlmagan shaxslar, noqonuniy migrant, migrantlarning inson huquqlari, konvensiya, deklaratsiya*

## МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ МИГРАНТОВ

**Суропов Азамат Фуркат угли,**
самостоятельный соискатель Правоохранительной академии Республики Узбекистан,
главный юрисконсульт юридического департамента Центрального банка Республики Узбекистан

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются международные стандарты и механизмы защиты прав мигрантов, включая международные договоры, принятые в рамках специализированных организаций, региональные международные соглашения, а также двусторонние договоры, непосредственно регулирующие миграционные процессы. Наряду с этим исследуются современные тенденции развития международно-правового регулирования миграции. Особое внимание уделяется выявлению существенных изменений в международных договорах, существующих правовых пробелов, а также проблем и ограничений, требующих решения. Анализируются вопросы соблюдения государствами положений указанных договоров и выявляются недостатки, возникающие в процессе их практической реализации. Кроме того,*

*в работе обобщены и критически осмыслены позиции зарубежных и национальных учёных по вопросам защиты прав мигрантов, включая высказанные ими предложения и замечания. На этой основе сформулированы соответствующие предложения и рекомендации, направленные на совершенствование международно-правовых норм в рассматриваемой сфере.*

***Ключевые слова:*** *миграция, права человека, мигрант, лица без гражданства, незаконный мигрант, права человека мигрантов, конвенция, декларация*

## INTERNATIONAL LEGAL FOUNDATIONS FOR THE PROTECTION OF MIGRANTS' RIGHTS

**Suropov Azamat Furqat ugli,**
Independent Researcher at the Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan,
Chief Legal Counsel of the Legal Department
of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan

***Abstract.*** *This article analyzes international standards and mechanisms for protecting the rights of migrants, including international treaties adopted within specialized organizations, regional international treaties, and bilateral treaties directly regulating migration, as well as modern migration trends in international law. In addition, important changes in these international treaties, legal gaps, problems (restrictions) requiring solutions, as well as compliance by states with the provisions of this treaty and shortcomings arising in the process of their practical application were studied. In this regard, in addition to the above, the opinions, suggestions and objections expressed by foreign and national scientists on the protection of migrants' rights were studied and analyzed, and relevant proposals and comments were given on improving international legal norms.*

***Keywords:*** *migration, human rights, migrant, stateless persons, illegal migrant, human rights of migrants, convention, declaration*

### Kirish

O'z mamlakatidan tashqarida ishlayotgan migrantlarning huquqlarini himoya qilish masalasi butun dunyoda, jumladan BMT tizimida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro migratsiya va inson huquqlari standartlarini tartibga soluvchi asosiy parametrlarni belgilovchi xalqaro hujjatlarning keng doirasi mavjud.

Keng qamrovli xalqaro konvensiyalar, mintaqaviy shartnomalar, ikki tomonlama bitimlar va milliy qonunchilik migratsiyani tartibga solishning asosini tashkil etadi. Xalqaro huquqda, xususan, migrantlarga nisbatan munosabatlarda, aniq belgilangan qoidalar mavjud. Xalqaro huquqiy normalar migrantlar, shu jumladan mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish bo'yicha batafsil qoidalarni, migratsiyani tartibga solish hamda hukumatlararo hamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi. Xalqaro hujjatlar milliy miqyosda siyosat va ilg'or amaliyotlarni ishlab chiqish uchun keng qamrovli huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

T.A. Prudnikova (2018, pp. 595–610) ta'kidlaganidek, xalqaro standartlar tizimi migrantlarning xalqaro huquqiy munosabatlardagi o'rnini mustahkamlab, ularning huquqlarini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuvga yaqin pozitsiyani Jeyms Hollifild (Hollifield, 2004) ham ilgari suradi. Uning fikricha, zamonaviy davlatlar "liberal paradoks" sharoitida faoliyat yuritadi. Ya'ni ular bir tomondan migratsiyani cheklashga intilsa, ikkinchi tomondan inson huquqlari va xalqaro majburiyatlar tufayli migrantlar huquqlarini kengaytirishga majbur bo'ladi.

Biroq bu optimistik yondashuv barcha olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi. Masalan, Stefan Kastles (Castles, 2010) migratsiya sohasidagi xalqaro normalar ko'pincha davlatlarning real siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, migratsiya siyosati asosan iqtisodiy ehtiyoj va siyosiy omillar bilan belgilanadi, inson huquqlari esa ko'pincha ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hozirgi kunda migrantlar huquqlarini tartibga soluvchi xalqaro tizim mavjudligi e'tirof etiladi. Bu borada Aleksandr Bets (Betts, 2011) xalqaro hamkorlik hamda institutlar rolini yuqori baholab, qochqinlar va majburiy migratsiya masalalarida global boshqaruv mexanizmlari muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, davlatlar o'zaro hamkorlik orqali migratsiya muammolarini samarali hal qilishi mumkin.

Biroq qarama-qarshi nuqtayi nazar ham mavjud. Heyn de Has (de Haas et al., 2020, pp. 485–488) migratsiya siyosatiga oid keng qamrovli tadqiqotlarida davlatlar ko'pincha migratsiyani nazorat qilish imkoniyatlarini ortiqcha baholashini va siyosiy diskurs ilmiy asoslardan ko'ra ko'proq stereotiplarga tayanishini qayd etadi. Bu esa xalqaro standartlarning amaliy samaradorligini cheklaydi.

O.V. Gromsev (Gromtsev, 2016, p. 55) global harakatchanlikning oshishi davlatlarni hamkorlikka undayotganini ta'kidlaydi. Bu fikrni S. Sassen (1998, pp. 117–120) ham qo'llab-quvvatlab, globallashuv sharoitida davlat suvereniteti transformatsiyaga uchrayotganini va transmilliy jarayonlar kuchayib borayotganini qayd etadi.

Shu bilan birga, realist yondashuv tarafdorlari, jumladan, Samuel Hamington (Humington, 2004) migratsiya masalasida madaniy va siyosiy xavfsizlik omillarini ustuvor deb biladi. Uning fikricha, keng ko'lamli migratsiya davlatlarning milliy identiteti va ichki barqarorligiga tahdid solishi mumkin. Shu sababli davlatlar ko'pincha xalqaro majburiyatlardan ko'ra milliy manfaatlarni ustun qo'yadi.

Yuqoridagi ilgari surilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, migrantlar huquqlarini ta'minlash masalasi zamonaviy xalqaro huquq tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro standartlar va institutlar ushbu sohada muayyan normativ asos yaratgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi borasida ilmiy doiralarda yagona fikr mavjud emas. Migrantlar huquqlarini ta'minlash tizimi ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan u rivojlangan normativ-huquqiy bazaga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning amaliy ijrosi davlatlarning siyosiy irodasi va xalqaro hamkorlik darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu bois kelgusida ushbu sohada nafaqat yangi huquqiy normalarni ishlab chiqish, balki mavjud mexanizmlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuv zarur.

**Asosiy qism**

Ushbu maqolada migrantlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlar, mexanizmlar, shu jumladan ixtisoslashgan tashkilotlar doirasida qabul qilingan xalqaro, mintaqaviy xalqaro, migratsiyasini bevosita tartibga soluvchi ikki tomonlama shartnomalar qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu maqolani yozishda asosan qiyosiy-analitik, qiyosiy-huquqiy va statistik usullardan foydalanildi. Bu usullarning barchasi ma'lum darajada maqola natijalarining ishonchliligi hamda asosliligini ta'minlashga yordam berdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining joriy bahosiga ko'ra dunyoda taxminan 281 million migrant mavjud bo'lib, bu global aholining 3,6 %ini tashkil etadi. Shu bilan birga, mojaro va zo'ravonliklar, siyosiy yoki iqtisodiy beqarorlik, iqlim o'zgarishi va boshqa ofatlar sababli tobora ko'proq insonlar o'z mamlakati ichida va undan tashqarida majburiy ko'chishga duch kelmoqda.

2022-yilda dunyo bo'yicha 117 million nafar majburiy ko'chirilgan shaxs qayd etilgan bo'lib, shundan 71,2 millioni ichki ko'chirilgan shaxslarni tashkil etadi. Boshpana izlovchilar soni 2020-yildagi 4,1 milliondan

2022-yilda 5,4 million nafarga yetib, 30 foizdan ortiq oʻsishni koʻrsatgan (International Organization for Migration, 2024).

Migrantlarning asosiy va umume'tirof etilgan huquqlarini ta'minlovchi universal hujjatlar. Migrantlarning inson huquqlarining asosi va kafolati boʻlgan hamda ular asosida ushbu sohada boshqa hujjatlar qabul qilingan *1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt va 1966-yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktlar* shular jumlasidandir.

A.Y. Shapkinaning (2011) fikricha, inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqning butun tizimi barcha odamlarning insoniyatga mansubligi tufayli ma'lum huquqlarga ega ekanligiga asoslanadi. Oʻz navbatida, ushbu tamoyil *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi*ning 1, 2-moddalarida ham mustahkamlangan boʻlib, u shunday bayon etilgan: "Barcha insonlar erkin, qadr-qimmati va huquqlari boʻyicha teng boʻlib tugʻiladilar. Shuningdek, har kim irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy qarashlari, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, sinfiy yoki boshqa har qanday maqomidan qat'i nazar, ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan barcha huquq va erkinliklarga egadir".

Mazkur fikrga nisbatan shaxsiy yondashuv shuni koʻrsatadiki, Shapkina ilgari surgan konsepsiya zamonaviy xalqaro huquqning eng muhim gʻoyaviy poydevorini aks ettiradi. Haqiqatan ham, inson huquqlarining universalligi prinsipi migrant, qochqin va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar huquqlarini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu prinsip orqali fuqaroligidan qat'i nazar, har bir insonning huquqiy maqomi tan olinadi. Biroq uning toʻliq samaradorligi ushbu prinsiplarning amaliyotda qay darajada izchil qoʻllanishiga bogʻliq boʻlib qolmoqda. Shu sababli zamonaviy sharoitda inson huquqlarining universalligi nafaqat normativ darajada e'tirof etilishi, balki real siyosiy-huquqiy mexanizmlar orqali ta'minlanishi zarur.

Shuningdek, BMT tomonidan 1965-yil 21-dekabrda qabul qilingan *Irqiy kamsitishning har qanday shakliga barham berish toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiya* ham a'zo davlatlar uchun tan olishi majbur boʻlgan qator normalarni oʻzida mujasamlashtirgan. Xususan, ushbu konvensiyaning 1-moddasi toʻrtinchi qismidagi: *himoyaga muhtoj ayrim irqiy yoki etnik guruhlar yoxud alohida shaxslarning inson huquqlari va erkinliklaridan bir xil foydalanish va amalga oshirishga qaratilgan rivojlanishini ta'minlash uchun alohida chora-tadbirlarning qabul qilinishi irqiy kamsitish hisoblanmaydi* deb ta'kidlangan norma migrantlar uchun zarur (United Nations General Assembly, 1965).

Bundan tashqari, shu kabi normalar *Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning* 2-moddasi birinchi qismida ham oʻz aksini topgan boʻlib, bunda fuqarolar va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning huquqlari oʻzaro ajratilmasligi belgilangan. Shunga oʻxshash yondashuvni *Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt*ning 4-moddasida ham koʻrishimiz mumkin. Unda ishtirokchi davlatlar shaxsning fuqarolik maqomidan qat'i nazar, barcha shaxslarga asosiy huquqlarlarini tan olishni kafolatlaydi.

Darhaqiqat, akademik A.X. Saidov (2006) inson huquqlari boʻyicha xalqaro huquqning asosiy tushunchalariga ta'rif berganda "erkinlik prinsipi"ga katta ahamiyat berib, bu prinsip barcha odamlar ozod boʻlib tugʻilishi va erkinlik huquqiga ega boʻlishning oʻzi har bir odam oʻz turmush tarzini tanlashda, tafakkur yuritish, hissiyot va harakatlarida erkin ekanligini anglatishini ta'kidlab oʻtganligini alohida qayd etish mumkin.

Shaxsiy nuqtayi nazardan Saidovning mazkur pozitsiyasi inson huquqlarining falsafiy va huquqiy asoslarini chuqur ifodalaydi. Darhaqiqat, erkinlik prinsipi boʻlmasa, boshqa huquq va erkinliklarning toʻliq amalga oshirilishi ham qiyinlashadi. Ayniqsa, globallashuv va migratsiya jarayonlari kuchaygan

hozirgi davrda insonning o'z hayot yo'lini mustaqil tanlash huquqi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur yondashuvni I. Berlinning (1969, pp. 118–172) erkinlik haqidagi nazariyasi bilan taqqoslash mumkin. Berlin erkinlikni ikki turga: salbiy (tashqi aralashuvdan xoli bo'lish) va ijobiy erkinlik (o'z hayotini o'zi boshqarish imkoniyati)ga ajratadi. Saidovning fikri ko'proq ijobiy erkinlik mazmuniga yaqin bo'lib, insonning o'z imkoniyatlarini erkin amalga oshirishiga urg'u beradi. Biroq Berlin yondashuvida erkinlikni cheklash xavfi, ya'ni davlat yoki jamiyat tomonidan majburiy yaxshilikni singdirish ehtimoli haqida ogohlantirish mavjud.

BMT Bosh Assambleyasining maxsus ishchi guruhining o'n yillik faoliyati natijasida BMTning *1990-yil 18-dekabrda Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya* (United Nations General Assembly, 1990) paydo bo'ldi. Konvensiya shuni ko'rsatadiki, chet elda ishlaydigan mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari aholining himoyalanmagan qismini tashkil qilib, ularning huquqlari ko'pincha mezbon mamlakatning milliy qonunchiligida ham, kelib chiqqan mamlakatida ham mustahkamlanmaydi. Konvensiya mehnat migrantlarining asosiy huquqlarini, shuningdek ular qonuniy yoki noqonuniy ravishda kelishidan qat'iy nazar, boshqa mamlakatda bo'lish tamoyillari va kafolatlarini belgilaydi. Shuningdek, mazkur konvensiya mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining umumiy huquqlarini ta'minlash va tan olish uchun mezbon davlatlarning javobgarligini mustahkamlaydi.

Ammo V.A. Kartashkinning ta'kidlashicha (2009, p. 275), uning faoliyati hali ham yetarlicha samarali emas, chunki millionlab mehnat migrantlari ishlaydigan ko'plab rivojlangan davlatlar ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilmagan. Bundan tashqari, mazkur konvensiya qo'mitasining individual shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolati hozirgacha hech bir davlat tomonidan tan olinmagan.

Shaxsiy nuqtayi nazardan Kartashkinning ushbu tanqidi asosli va real holatni aks ettiradi. Darhaqiqat, xalqaro huquqiy hujjatlarning samaradorligi nafaqat ularning mazmuniga, balki ularni qabul qilgan va amalga oshirayotgan davlatlar soniga ham bevosita bog'liq. Agar asosiy migrant qabul qiluvchi davlatlar konvensiyaga qo'shilmasa, uning universal xarakteri zaiflashadi, u ko'proq deklarativ hujjat sifatida qolib ketadi. Kelgusida uning samaradorligini oshirish uchun davlatlarning kengroq ishtirokini ta'minlash va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish kerak.

*Ixtisoslashgan tashkilotlar doirasida qabul qilingan xalqaro shartnomalar.* Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) dunyoda mehnat migratsiyasi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ixtisoslashgan tashkilot bo'lib, u o'z ustavida belgilanganidek, xorijiy davlatlarda mehnat qilayotgan migrantlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni o'zining asosiy vazifalaridan biri sifatida tan oladi. U tashkil etilganidanoq, eng avvalo, mehnat migrantlarining huquqlarini belgilash va himoya qilish, ularning ahvolini yaxshilash asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan. XMT o'z faoliyatini konvensiya va tavsiyalar ko'rinishidagi xalqaro mehnat standartlarini ishlab chiqish, ularning tan olinishi va amalda rioya etilishiga ko'maklashish orqali amalga oshiradi. 1919-yilda XMT Bosh konferensiyasining 1-sessiyasidayoq *"Chet ellik ishchilarga o'zaro munosabat to'g'risida"gi 2-sonli tavsiyanoma* qabul qilingan.

Mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha XMT tomonidan qabul qilingan maxsus va muhim konvensiya va tavsiyalar guruhi, shu jumladan XMTning 1949-yildagi *Mehnat migratsiyasi to'g'risidagi* 97-sonli konvensiyasini sanab o'tish muhimdir. Ushbu konvensiya qoidalari mehnat migratsiyasini tartibga solishning keng qamrovli huquqiy mexanizmini nazarda tutadi. Biroq konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlarning aksariyati ishchi kuchini eksport qilmoqda. Import

qiluvchi davlatlar esa konvensiyaga qo'shilish bilan bog'liq bo'lgan qat'iy huquqiy majburiyatlarni bajarishni istamaydilar.

Shuningdek, ushbu hujjatlar qatoriga 1950-yilda *"Bandlikni ta'minlash to'g'risida"gi konvensiyani* kiritishimiz mumkin. Mazkur konvensiyaga muvofiq, bandlik deganda migrantlarni eng maqbul ish bilan ta'minlash, malakaga muvofiq bo'sh ish o'rinlarini egallash tushuniladi. Konvensiya nafaqat ishsiz va ish qidirayotganlarga, balki mehnat bozorida hali o'z o'rnini topa olmagan, ijtimoiy-huquqiy kafolatlarga muhtoj bo'lgan yosh migrantlarga ham ish topishda yordam va ko'mak ko'rsatishga qaratilgan.

*Mehnat sharoitlari, ish haqi, ish vaqti va mehnatni muhofaza qilishni* nazarda tutuvchi XMTning konvensiyalari. Xususan, ushbu guruhdagi hujjatlarga *1958-yildagi Mehnat va kasb sohasida kamsitish to'g'risidagi* konvensiyani ham kiritish o'rinli. Mazkur hujjatga ko'ra (International Labour Organization, 1958), Xalqaro mehnat tashkilotiga a'zo davlatlar ta'lim va bandlik sohasida tenglik siyosatining amalga oshirilishini ta'minlashi, ushbu sohada kamsitilishlarning oldini olish bilan bog'liq barcha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

Dunyoda migratsiya vaziyatining o'zgarishiga XMT tomonidan 1975-yilda *Migratsiya sohasidagi suiiste'molliklar va mehnat migrantlariga nisbatan teng imkoniyatlar hamda teng munosabat to'g'risidagi* 143-sonli konvensiyaning qabul qilinishi ta'sir ko'rsatdi. Xususan, ushbu konvensiyaning asosiy maqsadi qonuniy mehnat migratsiyasini tartibga solishdan iborat bo'lgan yuqoridagi 97-sonli konvensiyadan farqli o'laroq, uni xalqaro miqyosda noqonuniy mehnat migratsiyasiga qarshi kurashdagi ilk yondashuvlardan biri sifatida baholash mumkin.

Mazkur konvensiya qoidalari va normalari a'zo davlatlardan o'z hududida noqonuniy migratsiyani aniqlash hamda bartaraf etish uchun zarur choralarni qo'llashni talab etadi. Ushbu hujjat mehnat migrantlarining noqonuniy yoki yashirin harakatlanishi hamda hibsga olinishi bilan bog'liq holatlarga nisbatan jazo choralarini qo'llashni, shuningdek mehnat migrantlaridan noqonuniy foydalanishga qarshi qat'iy choralar ko'rishni nazarda tutadi.

P. Stoker ta'kidlaganidek (1995, p. 78), XMTning yuqoridagi 97-sonli *Mehnat migratsiya to'g'risida*gi va 143-sonli *Migratsiya sohasidagi suiiste'moliklar va mehnat migrantlariga nisbatan teng imkoniyatlar hamda muomalada bo'lish to'g'risidagi konvensiyalari* mehnat migrantlariga nisbatan ta'minlanishi kerak bo'lgan munosabatning minimal darajasini belgilaydi.

Yuqorida qayd etilgan konvensiyalardan tashqari, XMT tomonidan mehnat munosabatlari sohasidagi migrantlarning asosiy tamoyil va huquqlarini mujasamlovchi boshqa huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, belgilangan tartibda qabul qilingan.

Xususan, 1981-yilgi *Mehnat muhofazasi va gigiyenasi to'g'risidagi konvensiyani* ham ushbu guruhga kiritish mumkin. Konvensiyaga ko'ra (International Labour Organization, 1981), XMT a'zolari belgilangan ish vaqti davomida mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik va mehnat gigiyenasi bo'yicha milliy siyosat va qonun hujjatlarini ko'rib chiqishlari shart. Ushbu hujjatni asosiy maqsadi baxtsiz hodisalar va ish natijasida sog'liqqa yetkaziladigan zararni kamaytirishdan iborat.

Shuningdek, 1997-yildagi *181-sonli Xususiy bandlik to'g'risidagi* konvensiyaning qoidalari mehnat migrantlariga ham tegishli. Ushbu hujjat xususiy bandlik agentliklari orqali ishga qabul qilish va ishga joylashtirish bilan bog'liq mehnat migrantlarining huquqlarini suiiste'mol qilish holatlarining oldini olishga qaratilgan muhim qoidalarni o'z ichiga oladi. Xususan, mehnat migrantlarini yollash bepul bo'lishi kerakligi, ayrim toifadagi ishchilar va maxsus xizmat turlari ma'lum istisnolarga yo'l qo'yilishi qayd etilgan.

Olim Martinning fikricha (2013, p. 272),

ushbu konvensiyalarni ratifikatsiya qilish darajasi pastligining asosiy sabablari qatorida, avvalo, iqtisodiy omil, ya'ni konvensiya qoidalarini amalga oshirish uchun zarur resurslarning yetishmasligi, shuningdek davlatda qonuniy istiqomat qiluvchi va ishlayotgan mehnat migrantlari uchun teng munosabat tamoyilini ta'minlash imkoniyatining cheklanganligi keltiriladi.

Shaxsiy nuqtayi nazardan, ushbu fikr muayyan darajada asosli bo'lsa-da, uni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish biryoqlama yondashuv bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, iqtisodiy cheklovlar va institutsional imkoniyatlar ayrim davlatlar uchun jiddiy to'siq hisoblanadi. Biroq ko'plab holatlarda muammo faqat resurslar bilan emas, balki siyosiy iroda va migratsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari bilan ham bog'liq. Ya'ni ayrim davlatlar mehnat migrantlari huquqlarini kengaytirishdan ko'ra migratsiyani cheklash yoki arzon ishchi kuchidan foydalanishni ustun qo'yishi mumkin. Martinning yondashuvi ratifikatsiya darajasining pastligini tushuntirishda muhim omillarni ko'rsatib beradi, biroq bu jarayonni faqat iqtisodiy sabablar bilan izohlash yetarli emas. Amalda bu masala iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq bo'lib, xalqaro standartlarning samaradorligi aynan davlatlarning ushbu omillarni qanday muvozanatlashtirishiga bog'liq.

XMT tomonidan qabul qilingan ijtimoiy soha, xususan, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan sug'urta hamda vaqtinchalik nogironlik nafaqalarini belgilashni tartibga soluvchi hujjatlar ham muhim o'rin egallaydi. Ushbu hujjatlar qatoriga 1982-yilda qabul qilingan 157-sonli *Ijtimoiy ta'minot huquqlarini ta'minlashning xalqaro tizimini belgilash to'g'risidagi* konvensiyani kiritish o'rinli.

Xususan, ushbu konvensiya ijtimoiy ta'minotga zarurat tug'ilganda har qayerda va har qanday vaqtda himoyalanish huquqini ta'minlaydi. Konvensiya ijtimoiy ta'minot sohasidagi sog'liqni saqlash xizmatlariga, xususan, kasallik, homiladorlik va tug'ish nafaqalari, nogironlik bo'yicha nafaqa hamda boshqa huquqlarga nisbatan qo'llaniladi. O'z navbatida, ushbu hujjatga muvofiq mehnat migrantlari ham barcha fuqarolar bilan teng ravishda oddiy va muayyan hollarda tibbiy yordam olish huquqiga ega (International Labour Organization, 1982).

Ta'kidlash joizki, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan bundan bir necha o'n yillar avval qabul qilingan hujjatlar o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q va ushbu hujjatlar bizning davrimizda ham juda dolzarb. Shu o'rinda hozirgi vaqtda yangi muammolar yuzaga kelmoqda. Yuqoridagilarga asoslanib, Xalqaro mehnat tashkiloti o'z ishini tashkil qilmoqda va rejalashtirmoqda.

Mintaqaviy xalqaro shartnomalar. 1950-yilda *Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi* qabul qilindi. Ushbu hujjat Yevropa mamlakatlari doirasida shaxs, shu jumladan migantlarning inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning umumiy majburiy mexanizmlarini aks ettiruvchi xalqaro shartnomadir. Aynan ushbu konvensiyada ishchi migrantlarning huquqlarini asosiy jihatlari va majburiy ishlarni taqiqlash bo'yicha qoidalar ko'rsatilgan.

Aniqroq qilib aytganda, konvensiyaning 4-moddasida hech kim qullikda yoki majburiy holatda saqlanmasligi hamda hech kim majburiy mehnatga jalb qilinmasligi lozimligi belgilangan (Council of Europe, 1950). Ushbu konvensiya bizga mehnat migrantlarining asosiy huquqlari mintaqaviy darajadagi xalqaro shartnomalar bilan himoyalanganligi va majburiy mehnat qat'iy taqiqlanganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, mintaqaviy darajadagi yana bir muhim shartnoma, xususan, Afrika davlatlari o'rtasida 1981-yilda tasdiqlangan *Inson va xalqlarning huquqlari to'g'risidagi* Afrika xartiyasidir. Ushbu xartiya Afrika xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va fuqarolik

huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Shuningdek, unda insonning bir qator majburiyatlari aks ettirilgan. Mazkur xartiyaning 15-moddasiga binoan har bir inson adolatli va qoniqarli sharoitlarda ishlash hamda teng ish uchun teng haq olish huquqiga egadir (Organization of African Unity, 1981). Vaholanki, ushbu xartiya jinsi, lavozimi, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, ishchilarning adolatli va teng mehnat qilish huquqi va ular munosib ish haqi olish huquqiga ega ekanligini koʻrsatadi.

Shuningdek, 1995-yilda qabul qilingan Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligining *Inson huquqlari va asosiy erkinliklari toʻgʻrisidagi konvensiyasi* ham inson huquqlarini ta'minlash hamda mehnat migrantlarini himoya qilishda alohida oʻrin tutadi (Commonwealth of Independent States, 1995). Ushbu konvensiyada barcha a'zo davlatlar inson huquqlari boʻyicha asosiy xalqaro hujjatlarga muvofiq inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumbashariy hurmat hamda ularga rioya etilishiga koʻmaklashish, inson huquqlari va asosiy erkinliklari, bagʻrikenglik va xalqlar oʻrtasidagi doʻstlik an'analari buzilishining oldini olishi belgilab qoʻyilgan.

Shaxsiy nuqtayi nazardan, Afrika xartiyasining yondashuvi mehnat migrantlari va ishchilarning real ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga yaqinroq ekanini ta'kidlash mumkin. Chunki u nafaqat huquqlarni e'lon qiladi, balki mehnat adolati va teng haq toʻlash kabi aniq ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarni ham belgilaydi. MDH konvensiyasi esa koʻproq umumiy tamoyillar darajasida qolib, amaliy mexanizmlar jihatidan nisbatan keng va umumiy xarakterga ega. Shu sababli uning migratsiya sohasidagi bevosita ta'siri nisbatan bilvosita koʻrinadi. Shu bois migrantlar huquqlarini samarali himoya qilish uchun ushbu ikki yondashuvni bir-birini toʻldiruvchi tizim sifatida koʻrish maqsadga muvofiq.

*Migratsiyasini bevosita tartibga soluvchi ikki tomonlama shartnomalar.* MDH doirasida mehnat migratsiyasi muhim rol egallaydi va unga nisbatan asosiy e'tibor qaratilmoqda. Hamdoʻstlikka a'zo davlatlar fuqarolarining aksariyati oʻz vatanlaridan tashqarida ish izlab, odatda sobiq SSSR mamlakatlariga koʻchib oʻtmoqda. Shu sababli MDH davlatlari mehnat migratsiyasi munosabatlarini tartibga soluvchi bir nechta shartnoma va kelishuvlar imzolab kelinmoqda.

1992-yil 9-oktabrda Bishkekda *"MDH davlatlari fuqarolarining uning ishtirokchilari hududi boʻylab vizasiz harakatlanishi toʻgʻrisida"gi va 1994-yilda "Mehnat migratsiyasi va mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish sohasida hamkorlik toʻgʻrisida"gi* kelishuvlar imzolangan. Ushbu kelishuvlar zarur hujjatlar mavjud boʻlgan taqdirda ishtirokchi tomonlarning hududiga vizasiz kirish, chiqish va harakatlanish tartibini belgilaydi.

MDH doirasida migrantlarni repatriatsiya qilish boʻyicha qator kelishuvlar qabul qilingan, masalan, MDHga a'zo davlatlar oʻrtasida 2002-yil 7-oktyabrdagi *"Davlat qaramogʻisiz qolgan voyaga yetmaganlarni doimiy yashash joyiga qaytarish tartibi toʻgʻrisida"gi* kelishuvni keltirish mumkin. Shu oʻrinda, MDH davlatlari oʻrtasidagi migratsiya sohasidagi hamkorlik asoslari 2007-yilda qabul qilingan MDHga a'zo davlatlarning migratsiya sohasidagi kelishilgan siyosati toʻgʻrisidagi deklaratsiyada oʻz aksini topgan.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi ikki tomonlama readmissiya toʻgʻrisidagi kelishuvlar qaytish migratsiyasini tartibga solishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ikki tomonlama kelishuvlarni imzolash rivojlanish va taraqqiyotning muvaffaqiyatli amaliyoti boʻlib, ularni samarali amalga oshirish hamda milliy va xalqaro miqyosda ilgari surish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda migratsiyaning mintaqaviy rivojlanishdagi rolini baholash va takomillashtirishda sifat jihatidan ijobiy siljishlar kuzatilmoqda hamda migratsiyani boshqarishga yangi, maqsadli va tizimli yondashuvlar joriy etilmoqda. Bunday davlatlararo

hamkorlikning asosini, avvalo, 2007-yilda tuzilgan MDHga a'zo davlatlarning Migratsiya organlari rahbarlari kengashi tashkil etib, u davlatlararo hamkorlikni ikki tomonlama va koʻp tomonlama darajada kengaytirishda muhim rol oʻynaydi.

Bundan tashqari, 2008-yil 19-sentyabrda MDH Ijroiya qoʻmitasi va Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) oʻrtasida oʻzaro anglashuv va hamkorlik memorandumi imzolandi (Commonwealth of Independent States, 1995). XMT migratsiya jarayonlarini nazorat qilish uchun yangi samarali va qulay usullarni joriy etish boʻyicha MDH uchun muhim va alohida qiziqish uygʻotadigan tadqiqotdir.

Migratsiyasini boshqarishni takomillashtirish MDH hududida amalga oshirilayotgan boshqa integratsiya jarayonlari kun tartibiga ham kiritilgan (Fedotov, 2011, pp. 309–313). 2010-yilda Bojxona ittifoqi doirasida ikki shartnoma, xususan, *"Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqiy maqomi toʻgʻrisida"gi* va *"Uchinchi davlatlardan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish boʻyicha hamkorlik toʻgʻrisida"gi* kelishuvlar imzolangani bu boradagi eng e'tiborli yutuq boʻldi. Ushbu hujjatlar qabul qabul qilinishi MDH hududida migrantlarning inson huquqlarini kafolatlanishi va himoyasini ta'minlash yoʻlidagi muhim qadamdir.

MDHning boshqa konseptual hujjatlarida ham migratsiya siyosati masalalari oʻz aksini topgan. 2020-yilga qadar MDHni iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi (2008-y.) hamda uni amalga oshirish boʻyicha 2009–2011-yillarga moʻljallangan chora-tadbirlar rejasi shular jumlasidandir. Mazkur hujjatlarda MDH doirasida mehnat kuchlarining erkin harakatlanishi uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarni yaratish, migratsiya oqimining koʻlami, yoʻnalishi va tuzilishining oʻzaro mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan va qabul qiluvchi davlatning ichki qonunchiligini inobatga olgan holda samarali migratsiya siyosatini kuchaytirish nazarda tutilgan (Commonwealth of Independent States, 2008).

MDH doirasidagi kelishuvlar amaliy jihatdan muhim boʻlib, ular migratsiya oqimlarini tartibga solish va ishchi kuchining erkin harakatlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq ularning samaradorligi koʻpincha milliy qonunchilik va davlatlar oʻrtasidagi siyosiy hamkorlik darajasiga bogʻliq boʻlib qolmoqda. Shu sababli ushbu hujjatlar ba'zan fragmentar xarakter kasb etib, toʻliq integratsiyalashgan migratsiya tizimini yaratishda yetarli emas. Shu bois kelgusida migratsiya siyosatini yanada barqaror qilish uchun huquqiy normalarni amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlash zarur hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlarning global migratsiya siyosatini yillar oraligʻida ishlab chiqishdagi oʻrnini aniqlashda BMTning sobiq Bosh kotibi Pan Gi Munning 2007-yil 10-iyulda Bryussel shahrida boʻlib oʻtgan Migratsiya va rivojlanishning global forumiga yoʻllagan murojaatiga e'tibor qaratishni oʻrinli deb hisoblaymiz. Xususan, sobiq Bosh kotib ushbu forumda "migratsiyadan rivojlanish uchun foydalanish, shu jumladan sifatli migratsiyani rivojlantirish" masalasini koʻtarar ekan, rivojlangan davlatlarning farovonligini ta'minlagan dunyodagi yetakchi kompaniyalar hisoblangan *"eBay"*, *"Google"*, *"Intel"*ning asoschilari migrantlar hisoblanishini eslatib oʻtdi (Ban, 2007).

Ta'kidlash oʻrinli, mamlakatimizda yoshlar migratsiyasi va migratsiyaning gender jihatlarini kuchaytirish masalasi hanuzgacha oʻz yechimini topmagan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning (2021) BMT Inson huquqlari boʻyicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash Oʻzbekistondagi islohotlarda eng muhim oʻrin tutishini ta'kidlar ekan, unda BMTning Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya loyihasini taqdim etish va Yoshlar huquqlari boʻyicha maxsus ma'ruzachi institutini ta'sis etish masalasini koʻtarib chiqdi. Biroq migratsiya jarayonida ayollarning huquqlarini roʻyobga chiqarish va himoya

qilishning huquqiy jihatlari ochiq qolmoqda.

Shu bilan birga, 2018-yil 19-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan "Xavfsiz, tartibli va muntazam migratsiya bo'yicha Global shartnoma" tasdiqlanganini ta'kidlash lozim. Ushbu shartnoma xalqqa yo'naltirilgan qarashlarni, xalqaro hamkorlikni, milliy suverenitetni, qonun ustuvorligini, barqaror rivojlanishni, inson huquqlarini hurmat qilishni, gender tengligini, bolaning eng yaxshi manfaatlarini hamda boshqaruv va fuqarolik jamiyatining barcha darajalarini qamrab oluvchi migratsiyaga yaxlit yondashuvni ilgari suruvchi 10 ta yetakchi tamoyilga asoslanadi.

Ushbu tamoyillar shartnomaning 23 ta maqsadida o'z aksini topgan bo'lib, ular imzolagan davlatlar tomonidan doimiy ravishda milliy rejalar orqali amalga oshiriladi. Har bir maqsad uchun uni amalga oshirish chora-tadbirlari, shuningdek amalga oshirishning tegishli muddatlari va davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilanadi.

Mazkur global shartnomani mahalliy, milliy, mintaqaviy va global miqyosda axborot almashish va maqsadlarga erishish masalalarini muhokama qilish uchun 2022-yildan boshlab har to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan yirik global platforma bo'lib xizmat qiladigan Xalqaro migratsiya forumi tashkil etilgan. Ushbu global shartnomaning talab va shartlarini amalga oshirilishini ta'minlash uchun davlatlar darhol tegishli milliy amalga oshirish rejasini ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlashlari darkor.

**Xulosa**

Ushbu maqolada migrantlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha xalqaro shartnomalar tahlil qilindi. Xususan, migrantlar huquqlarini himoya qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan xalqaro-huquqiy hujjatlar har tomonlama o'rganildi. Global darajada migrantlarning inson huquqlari ko'plab xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan va keng yoritilgan. Ammo xalqaro hamjamiyat a'zolari tomonidan ularning past darajada ratifikatsiya qilinishi sababli migrantlarni himoya qilishda global migratsiya normalarining samaradorligi cheklanganligicha qolmoqda.

1. Mehnat migratsiyasi bo'yicha hamkorlik davlatlar o'rtasidagi migratsiya munosabatlarini tartibga solishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun mehnat migratsiyasi sohasidagi kelajakdagi muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston XMT va XMT kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni kuchaytirishi kerak. O'z navbatida, 1949-yil 1-iyulda qayta ko'rib chiqilgan Migrant ishchilar to'g'risidagi 97-sonli, Zo'ravonlik sharoitida migratsiya qilish va migrant ishchilarga teng imkoniyatlar va muomala qilishni targ'ib qilish to'g'risidagi 143-sonli, 1990-yil 18-dekabrdagi Barcha migrant ishchilar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyalarni ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish taklifini ilgari surish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish va ularga qo'shilish mehnat migratsiyasi sohasidagi milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish uchun zamin yaratadi hamda O'zbekiston Respublikasining global miqyosdagi obro'sini oshiradi. Shu o'rinda, ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish va O'zbekiston migrantlari katta oqimini yo'naltirayotgan mamlakatlar bilan ikki tomonlama bitimlarni imzolashni ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

2. Yuqorida tilga olingan xalqaro shartnomalarda *"noqonuniy mehnat migranti"* va *"migrantlarning inson huquqlari"* atamalariga aniq ta'rif berilmagan. Bu esa xalqaro qonun ijodkorligidagi bo'shliqni ko'rsatadi. Ushbu huquqiy bo'shliqni hisobga olgan holda *"noqonuniy mehnat migranti"* va *"migrantlar huquqlari"* atamalariga ta'rifni migrant ishchilarining huquqiy maqomini belgilovchi asosiy xalqaro hujjat bo'lgan 1990-yildagi Barcha migrant ishchilar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi BMT xalqaro konvensiyasida va

tashabbuskorlar tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining "Tashqi migratsiya to'g'risida"gi qonuni loyihasida aniq belgilanishi taklif qilinadi.

3. 2018-yil 19-dekabrdagi "Xavfsiz, tartibli va muntazam migratsiya bo'yicha Global shartnoma"da belgilangan tamoyil va maqsadlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida ta'kidlab o'tilgan global shartnomaning maqsadlariga erishish bo'yicha *milliy harakatlar rejasini* tasdiqlash maqsadga muvofiq. Xususan, ushbu rejada 23 ta maqsad, ularni amalga oshirish mexanizmlari, muddatlari, mas'ul davlat organlari va ijro etuvchi tashkilotlar hamda ushbu tadbirlardan kutilayotgan natijalar aks ettirilishi lozim.

Buning natijasida migratsiya jarayonini yanada samarali tartibga solish imkoniyati kengayadi, zamonaviy migratsiya muammolarini hal qilish hamda barqaror rivojlanishga migrantlarning ulushini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, migrantlarning inson huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilish yanada chuqur ilmiy o'rganish, xalqaro hamkorlik va davlatlarning siyosiy irodasini talab qiladigan muhim va rivojlanayotgan soha bo'lib qolmoqda.

## REFERENCES

1. Ban, K. (2007, July 10). *Address of the Secretary-General at the opening of the Global Forum on Migration and Development* [Speech transcript]. United Nations. https://www.un.org/sg/en/content/sg/statement/2007-07-10/address-secretary-general-opening-global-forum-migration-and
2. Berlin, I. (1969). *Two concepts of liberty*. In *Four essays on liberty* (pp. 118–172). Oxford University Press.
3. Betts, A. (2011). *Global migration governance*. Oxford University Press.
4. Castles, S. (2010). *Understanding global migration: A social transformation perspective*. Oxford University Press.
5. Commonwealth of Independent States. (1995). *Convention of the Commonwealth of Independent States on Human Rights and Fundamental Freedoms*. https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=4132
6. Commonwealth of Independent States. (2008, November 14). *Strategy for economic development of the Commonwealth of Independent States until 2020*. http://www.cis.minsk.by/page/18764
7. Council of Europe. (1950, November 4). *European Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms*. https://www.coe.int/en/web/human-rights-convention/the-convention-in-1950
8. De Haas, H., Castles, S., & Miller, M. J. (2020). *The age of migration: International population movements in the modern world* (6th ed.). Guilford Press.
9. Fedotov, A. P. (2011). Sotrudnichestvo gosudarstv – uchastnikov SNG v oblasti regulirovaniya trudovoy migratsii [Cooperation of the CIS member states in the field of labor migration regulation]. *Herald of Lobachevsky University of Nizhni Novgorod, 3*(1), 309–313.
10. Gromtsev, O. V. (2016). *Politicheskie i pravovye aspekty regulirovaniya transnatsionalnoy trudovoy migratsii: sravnitelnyy opyt Rossii i stran Zapadnoy Evropy [Political and legal aspects of transnational labor migration regulation: Comparative experience of Russia and Western European countries]* (Doctoral dissertation). Saint Petersburg State University.

11. Hollifield, J. F. (2004). The emerging migration state. *International Migration Review, 38*(3), 885–912.
12. Huntington, S. P. (2004). *Who are we? The challenges to America's national identity*. Simon & Schuster.
13. International Labour Organization. (1958). *Discrimination (Employment and Occupation) Convention (ILO Convention No. 111).*
14. International Labour Organization. (1981). *Occupational Safety and Health Convention (ILO Convention No. 155).*
15. International Labour Organization. (1982). *Maintenance of Social Security Rights Convention (ILO Convention No. 157).*
16. International Organization for Migration. (2024). *World migration report 2024*. https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2024
17. Kartashkin, V. A. (2009). *Prava cheloveka: mezhdunarodnaya zashchita v usloviyakh globalizatsii [Human rights: International protection in the context of globalization].* Norm.
18. Martin, R. (2013). *The price of rights: Regulating international labor migration*. Princeton University Press.
19. Mirziyoyev, Sh. M. (2021, February 22). *Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi [Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 46th Session of the United Nations Human Rights Council]*. President.uz. https://president.uz/uz/lists/view/4179
20. Organization of African Unity. (1981). *African Charter on Human and Peoples' Rights* (Banjul Charter). https://hrlibrary.umn.edu/instree/z1afchar.htm
21. Prudnikova, T. A. (2018). Mezhdunarodno-pravovoe regulirovanie trudovoy migratsii [International legal regulation of labor migration]. *Journal of Social Policy Research, 16*(4), 595–610.
22. Saidov, A. Kh. (2006). *Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq [International human rights law].* Konsauditinform Publ.
23. Sassen, S. (1998). *Globalization and its discontents: Essays on the new mobility of people and money*. The New Press.
24. Shapkina, A. Yu. (2011). Mezhdunarodnaya migratsiya trudyashchikhsya: sovremennye pravovye problemy *[International labor migration: Contemporary legal problems]. Bulletin of Moscow University, 11*(3).
25. Stoker, P. (1995). *Rabota inostrantsev: obzor mezhdunarodnoy migratsii rabochey sily [Employment of foreigners: An overview of international labor migration.]*. Academia.
26. United Nations General Assembly. (1965, December 21). *International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination*. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-elimination-all-forms-racial
27. United Nations General Assembly. (1966, December 16). *International Covenant on Civil and Political Rights*. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights
28. United Nations General Assembly. (1990, December 18). *International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families*. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-rights-all-migrant-workers

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 2-SON

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.6.2.